



\_\_\_\_\_ hokimligi  
maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi  
\_\_\_\_\_ maktabgacha va  
maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi  
\_\_\_-umumiy o'rta ta'lim maktabi  
2-"\_\_\_" sinf rahbari  
\_\_\_\_\_ning

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab  
ta'limi vazirining 2024-yil 23-avgustdagi 273-sonli  
buyrug'i 7-ilovasi asosida tayyorlangan  
20\_\_-20\_\_-o'quv yili uchun

# SINF SOATLAR ISH REJASI VA DARS ISHLANMALARI



*Ta'lim-tarbiya –  
bu bizning kelajagimiz,  
hayot-mamot masalasi.*

**SHAVKAT MIRZIYOYEV**

Har qanday jamiyatda barkamol avlodni tarbiyalash, voyaga yetkazish va uni ma'lum bir kasbga yo'naltirish og'ir va mashaqqatli mehnat evaziga amalga oshiriladi. Bu mashaqqatli mehnat uzluksiz ta'lim va tarbiyaviy faoliyatning mahsulidir. O'zbekistonda yoshlar tarbiyasini zamonaviy asosda ilmiy-texnologik isloh qilish borasida olib borilayotgan islohotlar, bugungi kun talablariga mos odobli, axloqiy fazilatlariga ega, yuksak ma'naviyatli, shu bilan birga bilimdon, zukko, ruhan va jismonan sog'lom, keng dunyoqarash va tafakkurga ega, zamonaviy kasb-hunar egasi bo'lgan vatanparvar yoshlarni yetishtirib berishni talab etadi.

Barkamol avlod tarbiyasi mamlakatimizda avvalo o'qituvchilar zimmasiga yuklatilgan eng olijanob vazifadir. Komil inson, o'qituvchining mashaqqatli mehnati namunasidir. Inson qalbiga yo'l avvalo ta'lim-tarbiyadan boshlanadi. Dunyo imoratlari ichida eng sharaflisi maktab bo'lsa, kasblaming ichida eng sharaflisi o'qituvchilik va murabbiylikdir.

Zamonaviy sinf rahbarining faoliyati birinchi navbatda o'z sinfidagi o'quvchilar bilan ishlashga qaratilgan. U har bir bolaning yoshi va individual xususiyatlarini o'rganish, kognitiv qiziqishlarni rivojlantirish va rag'batlantirish uchun motivatsiyani shakllantiradi.

## **Sinf rahbarining asosiy vazifalari**

o'quvchilarning maksimal darajada rivojlanishi uchun imkoniyatlarini ochish, har bir o'quvchi shaxsining o'ziga xosligini saqlab qolish, aqliy, ma'naviy va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlarni yaratishdir.

## **O'z faoliyatining texnologiyasini puxta egallagan haqiqiy sinf rahbari:**

- har bir o'quvchida o'ziga xos, betakror shaxsni ko'ra biladigan dono tarbiyachidir;
- har bir o'quvchini pedagogik tashxis asosida chuqur o'rganadi; u bilan munosabatlarni uyg'unlashtiradi;
- shaxsga yo'naltirilgan yondashuvga asoslangan holda bolalar jamoasini shakllantirishga yordam beradi.

## **Kasbiy mahoratga ega bo'lgan sinf rahbari yosh avlod shaxsini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. O'quvchi uchun u:**

- ustoz va bog'lovchi bo'g'in;
- axloqiy charchoqdan va ma'naviy halokatdan himoyachi;
- birgalikda turli tadbirlar orqali sinfda hamkorlidagi munosabatlarni quruvchi;
- har bir bola rivojlanishi va o'zini namoyon qilishi mumkin bo'lgan muayyan sharoitlarni yaratuvchi;
- psixolog bilan birgalikda o'quvchining ijtimoiylashuv jarayonidagi yordamchi;
- kundalik hayot va faoliyatni tashkil qilishda ustoz, maslahatchi va do'st
- hayotning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jihatlarini qabul qilish va tushunishda yordamchi
- rahbarlar, oila va atrofdagi jamiyatning birgalikdagi sa'y- harakatlarini muvofiqlashtiruvchi shaxs
- bolalar va o'smirlar guruhlarida qulay mikroiklim asoschisi



## ZAMONAVIY SINIF RAHBARINING KASBIY PORTRETI:

boshlovchi (kapitan)-  
rahbar va uning sinfi  
o'quvchilari bilan  
ishlaydigan pedagoglar  
jamoasining rahbari



o'z vazifalarini bajarish  
bilan birga  
"o'quvchilarga yaqin  
bo'lish va ularga barcha  
xatti-harakatlari bilan  
madaniy xulq-atvor  
namunalarini  
ko'rsatish" imkoniyatiga  
ega bo'lgan shaxs

ijodiy tashabbuskorlik,  
fuqarolik, mas'uliyat va  
bugungi kunda jamiyat  
tomonidan talab qilinadigan  
fazilatlarni rivojlantirish  
uchun sharoit yaratishga qodir  
bo'lgan rahbar-navigatör  
(boshlovchi)

vaziyatga, bolaning iltimosiga  
va uning mustaqillik  
darajasiga qarab, himoyachi,  
vasiy, yordamchi, hamrohlik  
qiluvchi, uni  
qo'llab-quvvatlovchi rollarini  
mahoratli bajarishga qodir  
bo'lgan rahbar

bolalikning ijtimoiy-madaniy ahamiyatini  
tan olgan va o'sib borayotgan shaxsning  
huquq va manfaatlarini hurmat qilgan  
holda, uning tarbiyasi va shaxsiy  
rivojlanishi vazifalarini ustuvor deb  
biladigan kasbiy mahoratga ega rahbar

## **Sinf rahbarligiga tanlovning asosiy mezonlari**

- kamida 3 yillik pedagogik ish stajiga ega bo'lgan
- maktabda asosiy xodim sifatida faoliyat olib borayotgan;
- boshqaruvchilik qobiliyatiga ega bo'lgan;
- o'quvchilar bilan ishlash jarayonida mas'uliyat bilan yondasha oladigan;
- umumta'lim muassasalarida soatbay (shu jumladan o'rindoshlik] asosda faoliyat olib boruvchi o'qituvchilarga sinfga rahbarlik qilishga yo'l qo'yilmaydi;
- boshlang'ich sinflarda sinf rahbarligi boshlang'ich sinfga birlashtirilgan o'qituvchilarga yuklatiladi

## **Sinf rahbarlarining asosiy vazifalari:**

- odob-axloq va ichki tartib qoidalariga muvofiq muomala va kiyinish madaniyatiga amal qilish, jamoada namunali bo'lish;
- ta'lim muassasasining tarbiyaviy tizimidagi tayanch pedagoglardan biri sifatida o'ziga birlashtirilgan sinfdagi o'quvchilarning amalda belgilangan ta'lim va tarbiya olishlarini tashkil etish;
- o'quvchilarning o'sib-ulg'ayishlarini pedagogik kuzatuvlar asosida nazorat qilish, yordamga muhtoj o'quvchilarga yakka holda yondashish asosida ular qalbida milliy g'urur, vatanparvarlik, mehr-oqibat, mas'uliyat, tashabbuskorlik, ishbilarmonlik kabi xislatlarni uyg'otish;
- voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risidagi qonun hujjatlari ijrosi borasida voyaga yetmaganlarning nazoratsiz va qarovsiz qolishlari, o'quvchilar o'rtasida jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olish bo'yicha o'tkaziladigan "O'quvchi", "Davomat" kabi profilaktik reydlarda hamkorlik qilish

## **Sinf rahbarlari o'zlariga yuklatilgan asosiy vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:**

- har tomonlama yetuk, barkamol - ma'naviy, aqliy, jismoniy rivojlangan shaxs tarbiyasini amalga oshirish, sinf o'quvchilarining qobiliyatlarini to'liq namoyon etishlari uchun tegishli shart-sharoitlar yaratish;
- pedagog jamoa hamkorligida tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda har bir o'quvchining o'ziga xos xususiyatlariga qarab yondashishni yo'lga qo'yish
- ertalabki saflanishlarda sinf o'quvchilarining belgilangan tartibda to'liq ishtirok etishlarini ta'minlash
- birlashtirilgan sinf xonasidagi mavjud jihozlarning saqlanishini va ulardan samarali foydalanishni ta'minlash
- sinf rahbarlari o'z faoliyatini o'quvchilarning yosh xususiyatlari, umumiy rivojlanish darajasi va qobiliyatlarini hisobga olgan holda, keng qamrovli tarbiyaviy ishlar va aniq mezonlar asosida tashkil etadi

## **Faoliyat yo'nalishlari**

### **Vatanparvarlik ruhida arbiyalash**

- o'quvchilarni Vatani va xalqiga sadoqat, fidoyilik, Davlat ramzlariga hurmat ruhida tarbiyalash
- o'quvchilar ongiga buyuk ajdodlarimiz merosi va xalqimizning bugungi bunyodkorlik ishlariga yuksak ehtirom tuyg'ularini singdirish
- sinfda o'quvchilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash muhitini yaratish
- topa oladigan shaxs sifatida shakllanishlari uchun zarur ko'nikmalarni rivojlantirish
- o'quvchilarni o'zbek va boshqa xalqlarning madaniy, milliy an'analariga hamat ruhida tarbiyalash

### **Ota-onalar va mahalla bilan hamkorlik**

- barkamol avlodni tarbiyalashda "Oila - mahalla - ta'lim muassasasi" hamkorligidagi jamoat kengashi faoliyatini keng tatbiq etish
- o'quvchilarni ijtimoiy himoya qilish bo'yicha aniq chora-tadbirlar belgilash
- o'quvchilarning ta'lim muassasasiga belgilangan maktab formasida kelishlarini nazorat qilish
- o'quvchilarning kundalik.com elektron platformasidan foydalanishini nazorat va tahlil qilish, o'quv qurollarining mavjudligi va to'g'ri tartibli saqlashlarini kuzatib borish, natijalarini ota-onalar bilan muhokama qilish
- o'quvchilarning turli salbiy diniy oqimlar ta'siriga tushib qolishining oldini olish, ularda bu borada immunitet shakllanishi uchun targ'ibot ishlarini olib borish
- ota-onalar bilan hamkorlikda ota-onalar majlislari, davra suhbatlari, muloqotlar uyushtirish
- darslarga surunkali va muntazam kelmaydigan, tarbiyasi og'ir o'quvchilar bilan ishlashda ularning ota-onalari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarishvahuquq-tartibot organlari bilan hamkorlik qilish

### **O'quvchilarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, maktabdan va sinfdan tashqari faoliyatga jalb etish:**

- o'quvchilarning qiziqishi, imkoniyati va qobiliyatlariga qarab fan
- to'garaklari, sport seksiyalari, badiiy-estetik, texnik, ekologik, sayyohlik va o'lkashunoslik yo'nalishidagi to'garaklarga, klublarga jalb qilish
- qobiliyatli va iste'dodli o'quvchilarni rag'batlantirish, ularning ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirishga ko'maklashish
- milliy madaniyatning asosi bo'lgan musiqa va qo'shiq, kino, adabiyot, xalq og'zaki ijodi, teatr, naqqoshlik va me'morchilik kabi xalq amaliy san'ati turlari vositasida o'quvchilar dunyoqarashini kengaytirish
- o'quvchilarni yozgi sog'lomlashtirish oromgohlarida dam olishini tashkil etish, kuzgi, qishki va bahorgi ta'til kunlarini mazmunli o'tkazishi uchun ota-onalar bilan hamkorlikda sharoit yaratish
- turli (bayramlar, ko'rik-tanlov, sport musobaqalari, uchrashuvlar, kechalar va boshqalar] ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda sinf o'quvchilarining faol ishtirokini ta'minlash

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2024-yil 23-avgustdagi 273-son buyrug'iga 7-ilova

“TASDIQLAYMAN”:

Maktab MMIBDO': \_\_\_\_\_

“Sinf soati” mashg'ulotlarining 20\_\_-20\_\_-o'quv yili uchun o'quv-mavzu rejasi  
2-SINF

№	O'tiladigan mavzular	Soat	Rejada	Amalda
1.	Ona yurtim-oltin beshigim	1		
2.	Men odobli o'quvchiman	1		
3.	Yo'l harakat qoidalarini vujudga kelish tarixi (Yo'l harakat qoidalari)	1		
4.	Ustozga hurmat (1 oktyabr – O'qituvchilar va murabbiylar kuni munosabati bilan)	1		
5	Yaxshilik qilishga shoshiling	1		
6	Ona tabiatni asraylik. (4-oktabr butun jahon hayvonlarni himoya qilish kuni munosabati bilan)	1		
7	Xavfsizlik alifbosi	1		
8	Ona tilim – jonu dilim (O'z.Res. “Davlat tili haqida”gi Qonun qabul qilingan kun munosabati bilan).	1		
9	Piyodalar va ularning tashkiliy jamlanmasida harakatlanish. (Yo'l harakati qoidalari)	1		
10	O'zbekiston Respublikasining bayrog'i (18 noyabr - O'z.Res. Davlat bayrog'i qabul qilingan kun munosabati bilan).	1		
11	Tartibga solish vositalari va ahamiyati. (Yo'l harakati qoidalari)	1		
12	Zo'ravonlikka yo'q deymiz	1		
13.	Baxtimiz qomusi (8 dekabr – Konstitutsiya kuni munosabati bilan).	1		
14	O'zbekiston Respublikasi madhiyasi (10 dekabr - O'z.Res. Davlat madhiyasi qabul qilingan kun munosabati bilan).	1		
15	Yo'lni kesib o'tish. To'xtash joyi. (Yo'l harakati qoidalari)	1		
16	Maktabimdagi kasblar	1		
17	Vatanparvar ajdodlarimiz (14 yanvar – Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan).	1		
18	Men o'zgachaman	1		
19	Maxsus transport vositalari va turlari. (Yo'l harakati qoidalari)	1		
20	Buyuk ajdodlarimiz (Navoiy va Bobur tavallud kunlari oldidan).	1		
21	Do'stlik – bebaho ne'mat. (2 mart O'zbekiston BMTga qabul qilingan kun munosabati bilan )	1		
22	Onalar - uyimiz charog'boni (8 mart – Xotin-qizlar kuni munosabati bilan).	1		
23	Tabassum olamni yoritadi.	1		
24	Transportda yurish qoidalari (Yo'l harakati qoidalari)	1		
25	Milliy an'analarimiz – g'ururimiz ( 21 mart – Navro'z do'stlik bayrami munosabati bilan).	1		
26	Sog'lom tanda - sog' aql	1		
27	Qonunlar nima uchun kerak?	1		
28	Ogohlantiruvchi belgilar. (Yo'l harakati qoidalari)	1		
29	Sehrlil so'zlar (muloqot ko'nikmalari).	1		
30	Ona Vatan – aziz! (Xotira va qadrlash kuni oldidan).	1		
31	Yo'l-transport xodisalari va ularning kelib chiqish sabablari. (Yo'l harakati qoidalari)	1		
32	Kitob bizning do'stimiz.	1		
33	Telefon va men	1		
34	Yoz-o'tadi soz	1		
	Jami:	34 soat		

Sana: “ ” 20 \_yil. Sinfi: \_\_\_\_\_ Sinf rahbari: \_\_\_\_\_

## 1-mavzu: Ona yurtim-oltin beshigim

**Mustaqillik shiori:** Bir bo‘lsak – yagona xalqimiz, birlashsak – Vatanimiz!

### I. Kirish:

**Sinf soati mashg‘ulotning maqsadi:** Yurt, ona Vatan haqidagi tushunchalarni o‘quvchilar ongiga yetkazish. Vatanga muhabbat tuyg‘usini uyg‘otish; o‘quvchilar nutqini o‘stirish.

**Kompetensiya — TK-1:** doimiy ravishda o‘z-o‘zini jismoniy, ma‘naviy, ruhiy, intellektual va kreativ rivojlantirish, kamolotga intilish, hayoti davomida mustaqil o‘qib-o‘rganish, kognitivlik ko‘nikmalarini va hayotiy tajribani mustaqil ravishda muntazam oshirib borish, o‘z xatti-harakatini muqobil baholash va mustaqil qaror qabul qila olish ko‘nikmalarini egallashadi;

**TK-2:** jamiyatda bo‘layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va ularda faol ishtirok etish hissini oshiradi

**Mashg‘ulot turi:** yangi bilim beruvchi, bilimlarni mustahkamlovchi, amaliy, nazariy, aralash, noan‘aviy, ananaviy.

**Mashg‘ulot uslubi:** tushuntirish, suhbat, tezkor savol – javob, amaliy mustaqil ishlar bajarish, muozara, muammoli topshiriq, ko‘rgazmali va boshqalar.

**Mashg‘ulot metodi:** guruhlarda ishlash, “kim epchil-u, kim chaqqon”, “ko‘rsam tezroq o‘rganaman”, “muammo va yechim” shu kabi metodlar.

**Mashg‘ulot jihozi:** mavzuga oid rasm, ko‘rgazmalar va tarqatma materiallar, o‘quv qurollari, elektron materiallar.

### Mashg‘ulotning borishi:

**Tashkiliy qism:** a) Salomlashish.

b) Davomatni aniqlash.

**Uyga vazifani so‘rash:** a) Savol – javob o‘tkazish.

b) Topshiriqlarni tekshirish.

### II. Asosiy qism:


Bizning Vatanimiz O‘zbekiston! O‘zbekiston – muqaddas Vatan. Aziz bobolarimiz ota-onamiz tug‘ilib o‘sgan maskan. Farzandlarimizni shu zaminga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalbida shu muborak zaminning har bir qarichiga mehru-muhabbat uyg‘otish bugungi kunning eng ustuvor fazilatlaridan biridir. Biz uchun Vatan bitta! Mamlakat bitta! Bizning go‘zal yurtimiz, noyob tabiatimiz, betakror Vatanimiz, bag‘ri keng va oliyjanob xalqimiz bor.

Men shu diyorda yashayman. Shu yurtda tug‘ilib o‘sdim. O‘zbekiston juda go‘zal diyor. O‘zbekistonda go‘zal bog‘lar, yuksak tog‘lar, bepayon dalalar, zilol suvlar, zamonaviy qishloqlar va bir-biridan go‘zal shaharlar ko‘p. O‘zbekistonimizning tabiati xilma-xil bo‘lib, go‘zallikda tengi yo‘q. O‘zbekiston jannatmakon diyori.

**2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish,** erishilgan yutuqlarni mustahkamlab, tub islohot jarayonlarini yangi bosqichga ko‘tarish, inson huquq va manfaatlarini, uning qadri, sha‘ni va g‘ururini yetakchi o‘ringa olib chiqish ustuvor vazifamizga aylangan hozirgi vaqtda yurtimizda tinchlik va barqarorlikni saqlash, davlatimizning hududiy yaxlitligi va bo‘linmasligi, sarhadlarimiz daxlsizligini ta‘minlash, millatlararo totuvlik, diniy bag‘rikenglik va hamjihatlikni mustahkamlashga intilish ko‘p millatli xalqimizni yanada birlashtiradigan, yuksak marralarga safarbar etadigan beqiyos kuchga aylanib bormoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M. Mirziyoyevning 2019 yil 19-martdagi videoselektorda ijtimoiy, ma‘naviy-ma‘rifiy sohalaridagi ishlarni yangi tizim asosida yo‘lga qo‘yish bo‘yicha ilgari surgan 5 ta muhim tashabbus:

- 1 Yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san‘atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga, iste‘dodini yuzaga chiqarishga sızmat qiladi.
- 2 Yoshlarni jismoniy chinlaytirish, ularning sport sohasida qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratishga yo‘natilgan.
- 3 Aholi va yoshlar o‘rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkili etishga qaratilgan.
- 4 Yoshlar ma‘naviyatini yuksaltirish, ular o‘rtasida kitobxonlikni keng targ‘ib qilish bo‘yicha tizimli ishlarni tashkili etishga yo‘natilgan.
- 5 Xotin-qizlarni ish bilan ta‘minlash masalalarini nazarda tutadi.



Ona Vatanimiz mustaqilligini keng nishonladik. Darhaqiqat, asrlarga ta‘tigulik bu yillar mobaynida Yurtboshimiz rahnamoligida xalqimizning farzandlar iqbolini o‘ylab, bir maqsadu muddao bilan, bir tanu bir jon bo‘lib amalga oshirilgan beqiyos ezgu amallari natijasida bugun mamlakatimizni dunyo tan olmoqda. O‘z tanlagan yo‘li, o‘z aytar so‘zi va amali bilan jahonni lol qoldirayotgan davlatimiz tobora barkamollik sari intilayapti

Savol:

Biz ham barkamol avlod bo‘lishimiz uchun o‘zimizda qaysi fazilatlarini tarbiyalamog‘imiz darkor? (...).

Taronada guruhining “O‘zbekiston” qo‘shig‘i tinglanadi.

### III. Yakuniy qism:

Dars yakunida o‘quvchilar bilan birgalikda olgan bilimlarni umumlashtirilib, savollar bilan mustahkamlanadi. O‘quvchilar rag‘batlantiriladi.



Sana: “ ” \_\_\_\_\_ 20\_\_-yil. Sinfi: \_\_\_\_\_ Sinf rahbari: \_\_\_\_\_

## 2-mavzu: Men odobli o'quvchiman.

### I. Kirish:

**Mashg'ulotning maqsadi:** O'quvchilarga ezgu fazilatlar haqida ma'lumot berish, ajdodlarimizning ibratli fikrlari bilan tanishtirish; o'quvchilarni atrofdagilarga yaxshilik va faqat yaxshilik qilishga o'rgatish. O'quvchilarda ezgu fazilatlarini kamol toptirish.

**Kompetentsiya: TK-1:** xalq maqollari, muqaddas kitoblardagi ibratli so'zlarni aniq va tushunarli bayon qila oladi; kattalar bilan so'rashida odob-axloq bilan muloqotga kirisha oladi

**TK-2:** odobli bo'lishga shaxsiy namuna ko'rsatadi; haqorat va turli yomon so'zlardan, yomon odatlardan saqlana oladi.

**Mashg'ulot turi:** yangi bilim beruvchi, bilimlarni mustahkamlovchi, amaliy, nazariy, aralash, noan'aviy, ananaviy.

**Mashg'ulot uslubi:** tushuntirish, suhbat, tezkor savol – javob, amaliy mustaqil ishlar bajarish, munozara, muammoli topshiriq, ko'rgazmali va boshqalar.

**Mashg'ulot metodi:** guruhlarda ishlash, “kim epchil-u, kim chaqqon”, “ko'rsam tezroq o'rganaman”, “muammo va yechim” shu kabi metodlar.

**Mashg'ulot jihozi:** mavzuga oid rasm, ko'rgazmalar va tarqatma materiallar, o'quv qurollari, elektron materiallar.

### Mashg'ulotning borishi:

**Tashkiliy qism:** a) Salomlashish.

b) Davomatni aniqlash.

**Uyga vazifani so'rash:** a) Savol – javob o'tkazish.

b) Topshiriqlarni tekshirish.

### II. Asosiy qism:

Aziz o'quvchi! Umrimiz davomida biz juda ko'p insonlardan yaxshilik ko'ramiz. Ota-onamiz, yaqinlarimiz, ustozlarimiz bizga faqat yaxshilikni tilaydilar. Inson o'ziga qilingan yaxshiliklarga albatta yaxshilik bilan javob qaytarishi kerak.

Ammo yomonlik qilganlarga qay tarzda javob qaytarish kerak? Yomonlikka yaxshilik bilan javob berish hammaning ham qo'lidan kelavermaydi. Agar sizga kimdir yomonlik qilsa, har qancha qiyin bo'lsa-da, unga albatta yaxshilik bilan javob qaytaring. Shunda u qilgan ishidan pushaymon bo'ladi, uyalganidan ikkinchi marotaba yomonlikka qo'l urmaydi.

«Temur tuzuklari»da shunday so'zlar bor: «Menga hasad qilib, o'ldirishga qasd qilgan kishilarga shunchalik sovg'a-in'omlar berib, muruvvat-u ehson ko'rsatdimki, bu yaxshiliklarni ko'rib, xijolat teriga g'arq bo'ldilar». Bundan ko'rinib turibdiki, bobomiz Amir Temur o'ziga dushmanlik qilgan kishilarga ham yaxshilik qilib, ularni to'g'ri yo'lga boshlaganlar. Allomalarning quyidagi so'zlarini hamisha yodda tutishimiz darkor:

Dunyoda topayin desang omonlik,

Birovga zarracha qilma yomonlik!



O'quvchilarga quyidagi savollarni berib, ularni javoblari baholanadi.

1. Yaxshilik deganda nimani tushunasiz?
2. Nima uchun allomalar yomonlikka yaxshilik bilan javob qaytarish kerakligini uqtiradilar?
3. «Yaxshilik» hikoyasini o'qib, mazmuniga diqqat qiling?
4. Ra'noning buvisi yaxshilikning foydasi haqida nimalar dedi?
5. Siz ushbu hikoyadan o'zingizga qanday xulosa chiqarib oldingiz?

### III. Yakuniy qism:

Dars yakunida o'quvchilar bilan birgalikda olgan bilimlarni umumlashtirilib, savollar bilan mustahkamlanadi. O'quvchilar rag'batlantiriladi.

Sana: “ ” \_\_\_\_\_ 20\_\_-yil. Sinfi: \_\_\_\_\_ Sinf rahbari: \_\_\_\_\_

### 3-mavzu: Yo‘l harakat qoidalarini vujudga kelish tarixi (Yo‘l harakat qoidalari)

#### I. Kirish:

**Sinf soati mashg‘ulotning maqsadi :** Yo‘l harakat qoidalarini tarixi va yo‘l harakati qoidasiga rioya etish umr foydasi ekanligini turli misollar orqali tushuntirish.

**Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi** — media manbalardan zarur ma‘lumotlarni izlab topa olishni, saralashni, qayta ishlashni, saqlashni, ulardan samarali foydalana olishni, ularning xavfsizligini ta‘minlashni, media madaniyatga ega bo‘lish layoqatlarini shakllantirish.

**O‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi** — doimiy ravishda o‘z-o‘zini jismoniy, ma‘naviy, ruhiy, intellektual va kreativ rivojlantirish, kamolotga intilish, hayoti davomida mustaqil o‘qib-o‘rganish, kognitivlik ko‘nikmalarini va hayotiy tajribani mustaqil ravishda muntazam oshirib borish, o‘z xatti-harakatini muqobil baholash va mustaqil qaror qabul qila olish ko‘nikmalarini egallash.

**Mashg‘ulot turi:** yangi bilim beruvchi, bilimlarni mustahkamlovchi, amaliy, nazariy, aralash, noan‘aviy, ananaviy.

**Mashg‘ulot uslubi:** tushuntirish, suhbat, tezkor savol – javob, amaliy mustaqil ishlar bajarish, munozara, muammoli topshiriq, ko‘rgazmali va boshqalar.

**Mashg‘ulot metodi:** guruhlarda ishlash, “kim epchil-u, kim chaqqon”, “ko‘rsam tezroq o‘rganaman”, “muammo va yechim” shu kabi metodlar.

**Mashg‘ulot jihozi:** mavzuga oid rasm, ko‘rgazmalar va tarqatma materiallar, o‘quv qurollari, elektron materiallar.

#### Mashg‘ulotning borishi:

**Tashkiliy qism:** a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

**Uyga vazifani so‘rash:** a) Savol – javob o‘tkazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

#### II. Asosiy qism:

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so‘ng ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy o‘zgarishlar hayotga izchil joriy etila boshlandi. Respublikaning bozor iqtisodiyotiga o‘tib borishi, xususiy mulkchilik va avtomobil sanoatining vujudga kelishi, chet ellar bilan teng huquqli iqtisodiy aloqalarning yo‘lga qo‘yilishi, fuqarolarning moddiy farovonligi ortib borishi tabiiy ravishda avtomobil yo‘llarida va shahar ko‘chalarida harakat miqdorining (yangi tayyorlanayotgan haydovchilar hisobiga) ortib borishiga olib kelyapti. Bir paytlar respublika bo‘yicha har 1000 nafar aholiga 35 dona yengil avtomobil to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, bugungi kunda bu ko‘rsatkich yanada ortib boryapti. Hozirda Toshkent shahri va viloyatining o‘zida har 1000 nafar aholiga 100 donadan ko‘p yengil avtomobil to‘g‘ri kelyapti. Bu ko‘rsatkichga hozirda foydalanilayotgan yuk avtomobillari va avtobuslarning miqdori qo‘shilsa, aholining ma‘lum bir qismini va ularning yuklarini xususiy tashuvchilar tashiyotganini hisobga olinsa, sodir etilayotgan yo‘l-transport hodisalarining 75% haydovchilarning aybi bilan sodir etilayotganini e‘tiborga olinsa, haydovchilarni mtayyorlash va qayta tayyorlash masalasi – eng dolzarb masala ekanini ko‘rish mumkin. Yosh oilalar va ularning farzandlariga gkamxo‘rlikni kuchaytirish, ulami huquqiy va ijtimoiy muhofaza qilishni ta‘minlash, shuningdek jismonan va har tomonlama rivoj topayotgan barkamol avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar hamda Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash orqali jamiyatning muhim bo‘g‘ini sanalmish sog‘lom va mustahkam oila shakllanadi.



Ana shunday qator e‘tiborga molik tadbirlar o‘tkazilayotgan bir vaqtda, bolalar o‘rtasida uchrayotgan baxtsiz hodisalarning oldini olish, ularsonini keskin kamaytirish dolzarb muammolardan biriga aylanib bormoqda. Ma‘lumki, bola shikastlanishining oldini olishda, avvalo, oila a‘zolarining xizmati muhim ahamiyatga ega. Chunki bola vaqtining asosiy qismini oilada yoxud maktabgacha ta‘lim tashkilotida o‘tkazadi. U yerda tarbiyalanadi, atrofdagilar bilan muomala qilishning dastlabki saboqlarini o‘rganadi.

#### III. Yakuniy qism:

Dars yakunida o‘quvchilar bilan birgalikda olgan bilimlarni umumlashtirilib, savollar bilan mustahkamlanadi. O‘quvchilar rag‘batlantiriladi.

**veb-saytimiz: Zokirjon.com**

*Zokirjon.com veb-sayti orqali o'zingiz uchun kerakli ma'lumotlarni yuklab oling.*

**Zokirjon Admin bilan**

*90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga telegram orqali bog'lanishingiz yoki nza456, nza445 izlab telegramdan yozishingiz so'raladi.*

*Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob beriladi.*

**O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2024-yil 23-avgustdagi 273-sonli buyrug'i 7-ilova asosida tayyorlangan**

**40 listdan iborat 2-sinf Sinf soatini to'liq holda olish uchun telegramdan yozing.**




**Telegram kanalimiz:**

**@Maktablar\_uchun\_hujjatlar**

**To'lov uchun: HUMO 9860230104973329**

**Plastik egasi Nabiyev Zokirjon**



**DIQQAT!!!**

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.

To'liq holda olganingizdan so'ng:

Faqat o'zingiz uchun foydalaning.

Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.

Internet orqali veb-saytlarga joylamang.

Kanal va gruppalarga tarqatmang.

**OMONATGA**

**HIYONAT QILMANG.**

***Bizni hizmatdan foydalanib qulay imkoniyatga ega bo'ling!***

***Bizda maktablar uchun quydagi hujjatlar mavjud***

- 1. 1-11-Sinflar uchun sinf soati ish reja va konspektlari**
- 2. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan to'g'arak hujjatlari**
- 3. Sinf rahbar hujjatlari**
- 4. Metodbirlashma hujjatlari**
- 5. Ustama hujjatlari**
- 6. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan konspektlar**
- 7. 1-11-Sinflar uchun Ish rejalar (Taqvim mavzu rejalar)**
- 8. Maktab ish hujjatlari**
- 9. Direktor ish hujjatlari**
- 10. MMIBDO' ish hujjatlari**
- 11.O'IBDO' ish hujjatlari**
- 12.Psixolog hujjatlari**
- 13.Xotin-qizlar qo'mitasi ish hujjatlari**
- 14.Kutubxona mudirasi ish hujjatlari**
- 15.Besh tashabbus hujjatlari**
- 16.Ochiq dars ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar**